

OZOD SHARAFIDDINOV MAQOLALARIDA ADABIYOT TALQINI

Jo'raqulova Mashhura O'rol qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Jurnalistika fakulteti, San'at juranlistika yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784293>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunos, munaqqid, O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinovning inson hayotida adabiyotning ta'siri borasidagi qarashlari va maqolalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, buloq suvi, vatan, muhabbat, millat, munaqqid, baxt.

LITERARY INTERPRETATION IN THE ARTICLES OF AZOD SHARAFIDDINOV

Abstract. This article discusses the views and articles of the literary critic, critic, hero of Uzbekistan Ozod Sharafiddinov on the influence of literature on human life.

Keywords: fiction, spring water, homeland, love, nation, critic, happiness.

ЛИТЕРАТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В СТАТЬЯХ АЗОДА ШАРАФИДДИНОВА

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды и статьи литературоведа, критика, Героя Узбекистана Озода Шарафиддинова о влиянии литературы на жизнь человека.

Ключевые слова: художественная литература, родниковая вода, родина, любовь, нация, критик, счастье.

Adabiyot – inson kashf qilgan hamma mo'jizlar, hamma buyuk ixtiolar ichida eng buyugi, eng ulug'veri. U ajoyib buloq. Bu musaffo buloqdan to'yib-to'yib ichishga, otabobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz bizga meros qoldirib ketgan asriy tashnalikni – ziyo, nur, fikr tashnaligini qondirishga shoshilinglar, odamlar!, degan edi

Ozod Sharafiddinov.

Qush parvoz uchun, inson baxt uchun dunyoga keladi. Inson haqiqiy baxtga erishmog'i uchun mustahkam e'tiqod va boy bilimga ega bo'lishi kerak. Buning uchun u adabiyotdan xabardor bo'lmos'hishga darkor. Adabiyot so'zi arab tilidan olingan bo'lib "adab" ya'ni odob degan ma'noni anglatadi. Adabiyotning inson hayotidagi o'rni uni tarbiyalash bilan birga, ichki dunyosini boyitishga, ma'naviy e'tiqodlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Badiiy asarlar bilan doimiy muloqotda bo'lgan kishi hayotning o'nqir-cho'nqir yo'llarida qoqilmaydi, ruhiy olami boy bo'lganligi tufayli har qanday vaziyatda to'g'ri yo'lni topa oladi. Har tomonlama mukammal ishlangan badiiy adabiyot insonlarni ezgulikka ergashtiradi.

Taniqli adabiyotshunos, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov adabiyotdan go‘zallik izlagan, kezi kelganda adabiy asarlarni to‘g‘ri baholay olgan mohir munaqqid sifatida barchamizga tanish. Uning xalqimizga qoldirgan ma’naviy-ma’rifiy merosi o‘zining ko‘lam zalvori bilan kishini hayratga soladi.

Ozod Sharafiddinov 1929-yil 1-martda Qo‘qon shahri yaqinidagi Ohunqaynar qishlog‘ida dunyoga kelgan. O‘rtta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) filologiya fakultetini tamomlagach (1951), Moskva aspiranturasiga qabul qilingan va filologiya fanlari ilmiy darajasini olgan (1955). Munaqqid ayni shu yillarini “Aspirantura saboqlari” nomli maqolasida biografik tarzda ochiq-oydin bayon qiladi.

Atoqli munaqqid adabiyotshunoslik maydoniga o‘tgan asrning elliinchil yillarida kirib kelgan. Bu haqida taniqli yozuvchi Abdulla Qahhorning ushbu so‘zlarini eslash o‘rinlidir: “Ozod Sharafiddinov adabiyot ilmiga, aniqroq qilib aytganda, adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha mana shu fazilatni saqlab qoldi”¹. Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov umrining oxiriga qadar ushbu e’tiqodida sobit turib adabiyotga, ijodga, haqiqatga sadoqat bilan xizmat qilgan. O‘tgan asr adabiy muhitida o‘z shaxsiyati, mustahkam e’tiqodi va zamonaviy dunyoqarashi bilan butun jamiyatga na’muna bo’la oladigan ziyolillardandir.

Talabalik yillaridanoq ilm-fanga qiziqqan, adabiyotni sevgan va jamoat ishlarida doimiy faolligi bilan qatnashgan. Poeziya muammolari bilan shug‘illangan Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotining holati haqida qator adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan. Izlanishlari natijasida “Zamon. Qalb. Poeziya” dastlabki kitobi 1962-yilda e’lon qilingan. Shundan so‘ng “Iste’dod jilolari” (1976), “Adabiy etyudlar” (1968), “Birinchi mo‘jiza” (1979), “Talant –xalq mulki” (1979), “Adabiyot –hayot darsligi” (1981), “Go‘zallik izlab” (1985), “Haqiqatga sadoqat” (1988), “Sardaftor sahifalari” (1999), “Prezident” (2003) singari asarlari ketma-ket chop etilgan.

1997-yildan to umrining oxirigacha “Jahon adabiyoti” jurnaliga boshchilik qilgan adabiyotshunos ijodining cho‘qqisi “Ijodni anglash baxti” (2004) kitobi nashr qilingan. Unda o‘zbek adabiyoting jahon adabiy sahnasida tutgan o‘rni haqida mulohazalari keng bayon etilgan.

Ozod Sharafiddinov butun hayotini ilm va adabiyotga bahshida etgan fidoiydir.

Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. “Cho‘lpon” (1991), “Cho‘lponni anglash” (1994) kitoblari, “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. Keyingi yillarda Ozod Sharafiddinov o‘zbek adiblari, madaniyat-san’at arboblari, olimlar haqida o‘nlab maqolalar yozgan. Tarjimonlik sohasiga ham qo‘l urib salmoqli ijod qilgan.

¹ Ozod Sharafiddinov “Dovondagi o‘ylar” Toshkent “Ma’naviyat” 2004.

U jahon adabiyotining ko‘plab namoyandalari, jumladan, Tolstoyning “Iqrornoma”, A.Sevelaning “To‘xtating samolyotni, tushib qolaman”, P.Koelonning “Alkimyogar” asarlarini mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

“Adabiyot – hayot darsligi”, “Adabiyotki bor – odamlar uchun”, “Adabiy tanqid va tafakkur”, “Adabiyot andozalarga sig‘maydi”, “Adabiyot yashasa – millat yashaydi” maqolalari orqali adabiyotning inson hayotidagi o‘rni, ta’sir kuchi to‘g‘risidagi mulohazalari yuzasidan so‘z yuritamiz.

Adabiyot barcha davrlarda kishilar hayotida muhim rol o‘ynagan. Adabiyot insonni tarbiyalaydigan muhim vosita, mustahkam jamiyat rivojida asosiy quroldir. Ozod Sharafiddinov “Adabiyot yashasa – millat yashaydi” maqolasida Cho‘lpon maqolalarini birma-bir tahlil qilib mulohazalar bildiradi. “Cholponni anglash so‘z san’atinng botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularni shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir” - deya Cho‘lpon ijodiga munosabat bildiradi. Munaqqid shu o‘rinda Cho‘lponning “Adabiyot nadur?” maqolasiga alohida to‘xtaladi.

“Ha, to‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdur. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyot o‘lmagan va adabiyotning taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo‘lur” degan teran qarashlariga urg‘u bergen holda, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma’naviyatini ta’minlaydigan omil degan xulosaga keladi.²

“Adabiyot nadur?” Cho‘lponning birinchi tanqidiy asari bo‘lib, u 16 yoshidaligida matbuotda e’lon qilinadi. Maqola shaklan qisqa bo‘lsada, mazmunan teran. Maqolani o‘rgangan Sharafiddinov Cho‘lponga nisbatan faqat favqulodda iste’dodga ega odamgina 16 yoshida tafakkurning bunchalik yuqori pog‘onalariga ko‘tarilishi mumkin degan ta’rifni beradi.

Yana bir tahliliy-tanqidiy maqolasida adabiyotga nisbatan “Adabiyotning asosiy predmeti inson. Bu jihatdan adabiyot dunyodagi eng demokratik hodisalardan biri bo‘lmog‘i kerak³. Unga shoh ham, gado ham, yosh ham, qari ham, cholu kampir ham, buyuk sarkarda-yu, oddiy askar ham, davlat arbobi va talaba ham, dunyoga mashhur aktrisa-yu, turli sabablar bilan tanini sotib tirikchilik qiladigan fohisha ham baribir” kabilidagi izohni yozadi.

Ozod Sharafiddinov topqir, zehnli ijodkor edi, “She’r ko‘p, ammo shoirchi?” maqolasi tahliliga e’tibor qaratsak. Maqolada yozadi: “Xo’sh, nega endi bugungi she’riyatimizda o‘rtamiyonachilik kuchayib ketayapti?⁴

² Ozod Sharafiddinov Tanlangan asarlar “Sharq” nashriyoti 2019 “Adabiyot yashasa – millat yashaydi” maqolasi, 349 b

³ Ozod Sharafiddinov “Olamning qalbi”, “Ma’naviyat” nashriyoti 2014, “Adabiy tanqid va yangicha tafakkur” maqolasi 143 b

⁴ Ozod Sharafiddinov “Ijodni anglash baxti” “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2004

Nega she'rlarda olam tor, hayot nafasi zaif, kitobiylilik kuchli". Munaqqid maqola orqali "shoir" ga yuzlanadi. Ko'pchilik yengil-yelpi, barmoq bilan sanarli she'r yozib, o'zini darrov tug'ma talant shoirddek his qilyapti. She'rlarida borliqni yuzaki ifodalaydi. Ular shunchaki ijod qiladi, "shoir" degan tushunchaning mazmunini to'la anglab yetmagan. Inson ko'plab she'r yozsa ham, ularda ma'no va mazmunni to'la ochib bera olmasa shoirlik maqomiga yetisha olmaydi. Haqiqiy shoir nimani yozayotgan bo'lsa o'sha narsani qalban his qiladi, qahramoni o'rniga o'zini qo'yadi, o'z ichki fikrlarini qahramoni tiliga ko'chiradi, shundagina she'rlari mazmunli va salmoqli chiqadi.

Munaqqid "Shoirlik – hamisha e'tiqodlilikdir. Shoirlik – hamisha vijdonning uyg'oqligidir. Shoirlik – hamisha bezovtalikdir. Shoirlik – hamisha ulug' mas'uliyatdir" – degan xulosaga keladi. Ushbu maqolasi orqali shoirlik faoliyatini munaqqid to'gri baholay olgan. Eng muhim keltirilgan fikrlardan ham munaqqidning o'z fikrlarini dadillik bilan ayta olganini ko'rishimiz mumkin.

Turli davralarda, turfa qarashli kishilar adabiyotning asl mohiyati ustida so'z yuritishi tabiiy. Ozod Sharafiddinov bevosita adabiyot haqida so'z yuritilar ekan, uni qolipga solib qo'yishni, shubhasiz, adabiyotni asosiy vazifasidan mosuvo qilib qo'yish deb biladi. Chinakam adabiy asar mavzu jihatdan ham, yo'nalish jihatdan ham cheklanmaydi. "Adabiyot inson tuyg'ulariga, dardiga, hayot yo'liga kirib borishi kerak. Odam nima uchun shunday turmush kechiryapti?"⁵ Inson hayotining mazmuni nima, uning o'ziga xos tomonlari qanday – asarda shular to'liqligicha aks ettirilishi shart" degan motiv asosida ijod qilgan munaqqid o'zbek adabiyotda tanqidchi-olim sifatida o'chmas iz qoldirdi.

Darhaqiqat, Ozod Sharofiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijodi, ayniqsa, adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos fidokorona xizmatlari olimning serqirra va noyob shaxs ekanligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Ozod Sharafiddinov "Dovondagi o'ylar" Toshkent "Ma'naviyat" 2004.
2. Ozod Sharafiddinov Tanlangan asarlar "Sharq" nashriyoti 2019 "Adabiyot yashasa – millat yashaydi" maqolasi, 349 b
3. Ozod Sharafiddinov "Olamning qalbi", "Ma'naviyat" nashriyoti 2014, "Adabiy tanqid va yangicha tafakkur" maqolasi 143 b
4. Ozod Sharafiddinov "Ijodni anglash baxti" "Sharq" nashriyoti, Toshkent -2004
5. Ozod Sharafiddinov "Olamning qalbi" "Ma'naviyat"2014,"Adabiyot andozalarga sig'maydi" maqolasi 154 b

⁵ Ozod Sharafiddinov "Olamning qalbi" "Ma'naviyat" 2014, "Adabiyot andozalarga sig'maydi" maqolasi